

Shaxmat-shashka musobaqasi

Zavqu shavq hamda hayajonga to'la musobaqalar hamkorlikka va hamjihatlikka chorlaydi.

2018 - yil 1-may kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 3-sonli talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi Aziza Xaitova hamda 3-TTJ "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti talabalar kengashi sardori Saidahmedov Jahongir bilan birgalikda talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida «Iqtisodiyot va menejment» fakulteti talabasi Iskandarov Xayitboy tashabbusi bilan 4-qavatda talabalar o'rtasida shaxmat-shashka bo'yicha qiziqarli musobaqa uyushtirildi.

Tadbirni o'tkazishda ko'zlangan maqsad talabalarning bo'sh vaqtlarini samarali va mazmunli o'tkazish ekanligi e'tiborga olingan holda, talabalar ana shu musobaqaga jalb etildi.



**3-TTJ "Iqtisodiyot va Menejment" fakulteti talabalar kengashi sardori Jahongir Saidahmedov
axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.